

INGLIZ TILINI O'QITISHDA TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Abdumuxtorov X

ADChTI 3-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Maqolada so'nggi yillarda keng tarqalgan pedagogik texnologiyalardan ingliz tilini o'qitish samaradorligini oshirishdagi ahamiyati haqidagi fikrlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, usul, texnologiya, chet til, o'yin, pedagogika, axborot texnologiyalari.

**АННОТАЦИЯ:** В статье рассматривается роль единых педагогических технологий в повышении эффективности обучения английскому языку в последние годы.

**Ключевые слова:** обучение, метод, технология, иностранный язык, игра, педагогика, информационные технологии.

**Annotation:** The article discusses the role of common pedagogical technologies in increasing the effectiveness of English language teaching in recent years.

**Key words:** education, method, technology, foreign language, game, pedagogy, information technology.

Ma'lumki, keyingi yillarda mamlakatimizda jahon andozalariga mos zamonaviy ta'lim tizimi shakllandi, mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. "Ta'lim tog'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning qabul qilinishi bilan uzluksiz ta'lim tizimi orqali zamonaviy kadrlar tayyorlashning asosi yaratildi.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmasdan, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum bir faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalar hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuv talab etadi.

Insoniyat sivilizatsiyasining quyi bosqichlarida shaxsni tarbiyalash, unga ta'lim berishga yo'naltirilgan faoliyat sodda, juda oddiy talablar asosida tashkil etilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib ta'lim jarayoni o'ta qat'iy hamda murakkab talablar asosida yo'lga qoyish zaruriyati kun tartibiga qo'yilgan. Shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatib kelingan edi. Bunday usul talabalarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, tashabbuskorlikni so'ndirar edi. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari endilikda ularga mustaqil ravishda ishlashni, egallagan bilim va ko'nikmalarini tahlil qilishni o'rgatadi.

Ta'limda innovatsiya - ta'lim tizimining ichki tuzilishini yangilash va o'zgartirishdan iborat. Innovatsiya asosan dolzarb ahamiyatga ega bo'lib, ma'lum bir tizimda shakllangan yangicha yondashuvlardir. Jahon pedagogik tajribasi, zamonaviy pedagogik



texnologiyalarning talabalarni fanlarga qiziqtirishga, ularning mustaqil ishlashda faolligini oshirishga imkoniyati cheksiz ekanligini tasdiqlamoqda. Innovatsion texnologiyalar va interaktiv metodlarni ta'lim jarayonida qo'llash dars samaradorligini oshirishga, o'quvchilar bilimni mustahkamlashga, ularning fanga bo'lgan qiziqishining ortishiga xizmat qiladi hamda talabalarning kasbiy tayyorgarligi va mahoratini kuchaytirish imkoniyatini yaratadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini ham bajaradi. Bunday o'quv jarayonida talaba asosiy figuraga aylanadi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslublar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari)dan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan -kunga kuchayib bormoqda. Xususan, ingliz tili o'qitishning ko'plab usul va metodlari yaratildi va yaratilmoqda. Hech qachon o'zga davlat tilini o'rganish oson kechmaydi, shu sababli ham chet tili o'qitishning oson va samarali usullaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Innovatsion texnologiyalardan hisoblangan zinama-zina texnologiyasi ham ana shunday samarali usullardan hisoblanadi. Biz ushbu usul orqali “Ingliz tilida ot so'z turkumi” mavzusini o'rgatishning quyidagi shartlarini keltirib o'tishni lozim topdik.

1. Talabalarga mashg'ulotning maqsadi va o'tkazilish tartibi tushuntiriladi. Mashg'ulotda qo'llanilgan vositalar A-3, A-4 formatli qog'ozlardan tayyorlangan tarqatma materiallar, flomaster yoki rangli qalamlar.

2. Talabalar mavzular soniga qarab 3-4 kishidan iborat kichik guruhlariga bo'linadi. Har bir guruhga qog'ozning chap tomonida kichik mavzu yozilgan varaqlar tarqatiladi:

Proper nouns	Countable nouns
Uncountable nouns	Compound nouns

3. O'qituvchi guruh a'zolarini tarqatma materialda yozilgan kichik mavzular bilan tanishishlarini va shu mavzu asosida bilganlarin flomaster yordamida qog'ozdagi bo'sh joyga guruh bilan birgalikda fikrlashib yozish vazifasini beradi va topshiriqni bajarishlari uchun aniq vaqt belgilaydi, masalan 10 minut.

4. Vaqt tugagach, guruhdan bir tayinlangan talaba chiqib taqdimot qiladi. Taqdimot vaqtida guruhlar tomonidan tayyorlangan material albatta auditoriya doskasiga mantiqan tagma-tag, ya'ni zina shaklida ilinadi.

5. O'qituvchi guruhlar tomonidan tayyorlangan materiallarga izoh beradi hamda ularni baholaydi. Shu tariqa mashg'ulot yakunlanadi.

Ushbu texnologiyani seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida yakka tartibda yoki kichik guruhlarda o'tkazish hamda nazorat darslarida qo'llash mumkin.

O'quv mashg'ulotining bunday usullar yordamida tashkil etilishi talabalarni mustaqil fikrlashga, o'tilgan va o'zlashtirilgan mavzularni eslashga, ularni yozma bayon etishga va fikrlarni umumlashtirishga o'rgatadi.



ADABIYOTLAR:

1. Ishmuhammedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005
2. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – T.: Iste'dod, 2008.

